

**Transport xizmatlarini tashkil etish bo'yicha
34- sonli SHARTNOMA**

Toshkent shahri.

“16” oktabr 2023 yil

“Toshshahartransxizmat” AJ nomidan (keyingi o'rirlarda - “**Tashuvchi**”) 2023 yil 4 yanvardagi 1-09-16/1-sonli ishonchnoma asosida ish yurituvchi Boshqaruv raisi o'ribbosari N.G.Davlatov, bir tarafdan va _____, (keyingi o'rirlarda “**Buyurtmachi**”) nomidan _____ asosida faoliyat yurituvchi, ikkinchi tarafdan, bиргаликда “**Taraflar**” deb nomlanuvchilar tomonidan mazkur Transport xizmatlarini tashkil etish bo'yicha shartnomani (keyingi o'rirlarda - “**Shartnoma**”) quyidagilar haqida tuzildi:

1. Shartnoma predmeti

1.1. “**Buyurtmachi**”ning buyurtmanomasi asosida “**Tashuvchi**” O'zbekiston Respublikasi hududida transport xizmatlarini ko'rsatishni, “**Buyurtmachi**” esa, mazkur Shartnoma shartlariga ko'ra ko'rsatilgan transport xizmatlarini qabul qilishni va ular uchun to'lovni amalga oshirishni o'z zimmasiga oladi.

1.2. Transport xizmatlari uchun narxlar tasdiqlangan hisob-kitoblar kalkulyatsiyasi asosida yoki taraflar tomonidan kelishilgan holda belgilanadi.

1.3. Transport xizmatlari “**Tashuvchi**”ning filiallarida mavjud bo'lgan harakat tarkibi bilan amalga oshiriladi.

Bitta buyurtma bo'yicha katta miqdorda transport xizmatlari ko'rsatilishi talab etilganda, “**Tashuvchi**” tegishli ravishda o'z filiallaridan avtobuslar ajratilishini ta'minlaydi.

2. Taraflarning huquq va majburiyatları

2.1. Tashuvchining majburiyatları:

2.1.1. “**Buyurtmachi**”ning buyurtmanomasi kelib tushgani holda, uni qabul qilish, transport vositalarini buyurtmanomada ko'rsatilgan muddatlarda belgilangan manzillarga ajratish;

2.1.2. “**Buyurtmachi**” ko'rsatiladigan xizmatlar uchun oldindan to'lovni amalga oshirgani holda, Toshkent shahar YHXBB xodimlari tomonidan o'tkazilgan texnik ko'rik dalolatnomasiga muvofiq texnik soz holdagi avtobuslarni belgilangan manzilga ajratish, tegishli tartibda rasmiylashtirilgan hujjatlar asosida tashishlarni belgilangan ish stajiga ega bo'lgan va tibbiy ko'rikdan o'tgan haydovchilar tomonidan amalga oshirilishini ta'minlash;

2.1.3. xizmatlar ko'rsatilganidan so'ng, “**Buyurtmachi**”ga amalda bosib o'tilgan masofa, mashina/soat, mashina/kunlar bo'yicha hisob-fakturani taqdim qilish;

2.1.4. yo'lovchi tashish va yo'l harakati xavfsizligi qoidalariiga riosa etilishini, xizmatlar ko'rsatishning yuqori darajadagi sifatini ta'minlash.

2.2. Buyurtmachining majburiyatları:

2.2.1. transport xizmatlarining o'z vaqtida va sifatli amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida tashishlar belgilangan kundan kamida 5 (besh) kun oldin quyidagi ma'lumotlar aks ettirilgan yozma buyurtmanomani “**Tashuvchi**”ga taqdim etadi:

- talab etiladigan avtotransport vositalari rusumi va soni;
- avtobuslar ajratiladigan sana, vaqt va manzilni ko'rsatgan holda;
- tashish yo'nalishi;
- tashiladigan yo'lovchilar soni;
- transport xizmatlari ko'rsatish uchun zarur bo'lgan boshqa ma'lumotlar.

2.2.2. yo'lovchilarni tashish bo'yicha ko'rsatilgan transport xizmatlarini qabul qilish va transport xizmatlari to'lovini Shartnomaning 3-bo'limi shartlariga muvofiq amalga oshirish;

2.2.3. “**Buyurtmachi**”ning buyurtmanomasi asosida yo'lovchilarni tashish bo'yicha “**Tashuvchi**”ning xizmatlari uchun belgilangan tariflarda, ajratilgan avtotransport vositasini belgilangan manzilga yetib borishi (qaytishi) uchun sarflangan vaqt, avtobuslarning yo'lovchilarsiz bosib o'tgan masofasi (nollik) bilan bog'liq xarajatlarni ham to'lab berish;

2.2.4. avtobuslarga yo'lovchilarning tartibli chiqishi – tushishi va tashish mobaynida yo'lovchilarning belgilangan talablarga rioya etishini ta'minlash;

2.2.5. "**Tashuvchi**"ning tashishni amalga oshirishi bog'liq hujjatlar (naryad - buyurtma blanki) va boshqa hujjatlarni tasdiqlaydi;

2.2.6. harakatlanish vaqtida avtobuslar saloni ichida tartibni ta'minlaydi;

2.2.7. avtotransport vositalarining ichki va boshqa jihozlariga zarar yetkazilishi, buzilishining oldini olish choralarini ko'radi.

2.3. *Tashuvchining huquqlari:*

2.3.1. yonilgi-moylash materiallari narxlarining va "**Tashuvchi**"ning harakat tarkibi va ishchi-xodimlarni saqlash xarajatlarining oshishi munosabati bilan, mazkur Shartnomaga qo'shimcha kelishuv orqali 10 (o'n) kun oldin "**Buyurtmachi**"ni ogohlantirgan holda, transport xizmatlari narxlarini o'zgartirish;

2.3.2. shartnomaviy majburiyatlarning "**Buyurtmachi**" tomonidan bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirish;

2.3.3. mazkur Shartnomaning 8-bo'limida ko'rsatilgan tartibda Shartnomani oldindan bekor qilish.

2.4. *Buyurtmachining huquqlari:*

2.4.1. shartnomaviy majburiyatlarning "**Tashuvchi**" tomonidan bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirish;

2.4.2. mazkur Shartnomaning 8-bo'limida ko'rsatilgan tartibda Shartnomani oldindan bekor qilish.

2.5. Taraflar 2017-yil 3-yanvardagi O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni (O'RQ-419-son) talablariga qat'iy rioya qilishlari va Taraflar xodimlarining manfaatdorligi mazkur Shartnoma shartlarining tegishli tartibda bajarilishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan holatlarning kelib chiqmasligi uchun choralar ko'rishlari lozim.

3. Ko'rsatiladigan transport xizmatlari uchun tariflar, to'lovni amalga oshirish va hisob-kitoblarni amalga oshirish shartlari

3.1. Transport xizmatlari uchun tariflar soatbay asosda va bosib o'tilgan masofa birligini hisobga olgan holda belgilanadi.

3.2. ko'rsatilgan transport xizmatlari uchun "**Buyurtmachi**" tomonidan to'lanadigan to'lovlar quyidagilarni ham o'z ichiga oladi:

- "**Buyurtmachi**"ning buyurtmanomasida belgilangan manzilga "**Tashuvchi**"ning filiali joylashgan joydan kelish – qaytishga sarflanadigan vaqt;

- yo'lovchilarni avtobusga chiqarish va tushirish uchun kerak bo'ladigan vaqt;

- "**Buyurtmachi**" ixtiyorida avtobuslarning bo'sh turgan vaqt;

- bevosita xizmat ko'rsatish vaqt.

3.3. "Yutong elektrobus" rusumli avtobusning 1 (bir) mashina/soatda bosib o'tgan 15 km masofa uchun shartnomaviy to'lov- 303 000 (uch yuz uch ming) so'mni tashkil qiladi.

3.4. "Yutong elektrobus" rusumli avtobusning bir soat ish davomida bosib o'tgan masofasi 15 kmdan ortoq bo'lganda, "**Buyurtmachi**" belgilangan masofadan ortiq har bir kilometr masofa uchun qo'shimcha – 7400 (etti ming to'rt yuz) so'mdan to'lovni amalga oshiradi.

3.5. Ko'rsatiladigan transport xizmatlari miqdori QQSni hisobga olgan holda, **15 000 000** (o'n besh million) so'mni tashkil etadi.

3.5.1. mazkur Shartnoma o'rnatilgan tartibda Moliya vazirligining g'aznachiligidida ro'yxatdan o'tgandan keyin, "**Buyurtmachi**" Shartnomani 3.5-bandida ko'rsatilgan miqdorning 30 (o'ttiz) foizini 5 (besh) bank kun ichida oldindan "**Tashuvchi**"ning hisob raqamiga to'laydi;

3.5.2. Shartnoma Moliya vazirligining g'aznachiligidida ro'yxatdan o'tishni taqozo qilmaydigan holatlarda, "**Buyurtmachi**" Shartnomaning 3.5.1-bandidagi oldindan to'lovni ushbu Shartnoma tuzilgan sanadan e'tiboran 5 (besh) bank kun ichida amalga oshiradi.

3.5.3. tasdiqlangan buyurtma-naryad blanklari, bajarilgan ishlar dalolatnomalari asosida "**Tashuvchi**" tomonidan rasmiylashtirilib, taqdim qilingan hisob-fakturasi asosida

“Buyurtmachi” shartnomada belgilangan to‘lovlar miqdorining qolgan 70 (yetmish) foizini 10 (o‘n) bank kuni ichida **“Tashuvchi”**ning hisob raqamiga to‘laydi.

4. Xizmatlar ko‘rsatish muddati

4.1. shartnomaning amal qilish muddati davomida oldindan to‘lovlar miqdori o‘rnataligan tartibda **“Tashuvchi”**ning hisob raqamiga to‘langani holda transport xizmatlari amalga oshiriladi.

5. Taraflarning javobgarligi

5.1. Taraflar shartnoma majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun O‘zbekiston Respublikasining “Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida”gi Qonuni (29.08.1998 y.dagi 670-I-son) va Fuqarolik Kodeksi asosida javobgarlikka tortiladi.

6. Fors-major

6.1. Fors-major holatlar kelib chiqqanda taraflar mazkur Shartnoma shartlarini bajara olmagan taqdirda, taraflar mazkur Shartnomada nazarda tutilgan javobgarlikka tortilmaydi. Fors-major holatlariga tabiiy ofatlar (yashinlar, quyinlar, suv toshqinlari, to‘fonlar, zilzilalar, yong‘inlar, harbiy harakatlar va boshqalar) kiradi.

7. Nizolarni hal qilish tartibi

7.1. Taraflar Shartnoma bo‘yicha kelib chiqqan tushunmovchiliklar va nizolarni hamfikrlikka asoslangan muhokamalar yo‘li bilan hal qiladi.

7.2. muhokamalar yo‘li bilan hal qilish imkonni bo‘lmaganda, nizolar belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual Kodeksi talablariga muvofiq Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudida hal qilinadi.

8. Boshqa shartlar

8.1. Mazkur Shartnomada nazarda tutilmagan holatlar O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq hal qilinadi.

9. Korrupsiyaga qarshi kurash shartlari

9.1. Taraflar, ularning affillangan shaxslari, xodimlari yoki vositachilari mazkur Shartnoma bo‘yicha majburiyatlarni bajarishda g‘ayriqonuniy ustunlikka ega bo‘lish yoki boshqa g‘ayriqonuniy maqsadlarga erishish uchun har qanday shaxslarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki vositachi pul mablag‘larini yoki qimmatliklar to‘lamaydi, to‘lashni taklif qilmaydi va to‘lashga ruxsat berishmaydi.

9.2. Taraflar, ularning affillangan shaxslari, xodimlari yoki vositachilari mazkur Shartnoma bo‘yicha majburiyatlarni bajarishda pora berish/olish, tijoriy og‘dirib olish deb malakanishi mumkin bo‘lgan harakatlarni amalga oshirmaydi, shuningdek korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha qo‘llaniladigan qonunchilik, xalqaro hujjatlar talablarini buzishga olib keladigan boshqa hatti-harakatlarni sodir qilishmaydi.

9.3. Taraflarning birontasida mazkur bo‘limning talab-shartlari buzilishi yoki buzilishi mumkinligi haqida shubhasi bo‘lsa, ushbu taraf ikkinchi tarafni bu haqida yozma shaklda ogohlantiradi. Bunda shubhalanuvchi taraf ikkinchi tarafni ushbu taraf, uning affillangan shaxslari, xodimlari, vositachilari tomonidan ushbu bo‘lim talab-shartlari, qoidalari buzilishi yoki buzilishi mumkin bo‘lgan shuhbalarini tasdiqlovchi faktlarga asoslaniishi yoki tegishli materiallarni taqdim etishi kerak.

9.4. Mazkur bo‘limning talab va shartlari buzilgan taqdirda, ikkinchi taraf Shartnomani bekor qilish haqida yozma ogohlantirish yo‘llash orqali Shartnomani bir taraflama suddan tashqari holda bekor qilishi mumkin.

10. Yakuniy qoidalar

10.1. Shartnomaga o‘zgartirish kiritish, uni bekor qilish, haqiqiy emas deb topish faqat amaldagi qonunchilikka muvofiq amalga oshirilishi mumkin.

10.2. Shartnomaga kiritilgan o‘zgartirishlar, qo‘srimchalar faqat ular yozma shaklda tuzilgan va taraflar tomonidan imzolanib, muhr qo‘ylgan holda haqiqiy hisoblanadi.

10.3. Shartnoma tuzilgunga qadar mavjud bo‘lgan taklif va muhokamalar Shartnoma tuzilganidan so‘ng o‘z kuchini yo‘qotadi. Shartnoma o‘rnatalgan tartibda ikki tomonlama imzolangandan keyin, tuzilgan shartnoma shartlari amal qiladi.

10.4. Shartnoma tuzilgan sanadan yoki Moliya vazirligining g'aznachilik tarkibiy tuzilmalaridan ro'yxatdan o'tgan kundan boshlab kuchga kiradi va 2023-yil 31-dekabrga qadar amal qiladi.

10.5. Shartnoma muddatidan oldin bekor qilingan holda, taraflar 3 (uch) bank kun ichida o'zaro hisob-kitoblarni amalga oshiradi.

11. Taraflarning yuridik manzillari, bank rekvizitlari va imzolari

11.1. Taraflarning birontasining manzili yoki xizmat ko'rsatuvchi banki o'zgarganda, ikkinchi tarafni uch kun ichida yozma ogohlantirishi shart.

"TASHUVCHI":

"Toshshahartransxizmat" AJ
100000, Toshkent sh., Amir Temur 1-tor
ko'cha, 6 uy, tel:234-90-25
h/p 2021 0000 2002 6945 7011
OPERU OAKB "Uzsanoatqurilishbank"
STIR 302 762 364, MFO 00440
OKED 70100



Davlatov N.G.

"BUYURTMACHI":

Ташкентский государственный университет
узбекского языка и литературы имени Алишера Навои
город Ташкент, Яккасрайский район, улица Укитувчилар-103
Л/c: 400110860262877094100079001
ИИН: 303958664, ОКОНХ: 92110 (ГУУЯЛ) Казиевство МФ РУз
P/c: 23402000300100001010
в РКЦ ГУ ЦБ г.Ташкент ИИН: 201122919 (РКЦ МФ), МФО: 00014



QQS to loychining ro'yxat kodi